
"Mard o'g'lon" Davlat mukofoti sohibi bilan uchrashuv

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 30-iyundagi 199-sonli Qaroriga asosan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining opera ijrochisi Saidasror Yigitaliyev "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlan edi.

Bugun tumanimizdagi Bog'iston mahallasida voyaga yetgan Saidasror Yigitaliyev bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosarlari, yoshlar yetakchilari, jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Uchrashuv davomida "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti sohibi tuman hokimining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

2023-07-03 11:42:45